

O‘SMIRLARDA XAVOTIRLIKNING GENDER XUSUSIYATLARINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-AMALIY AHAMIYATI.

Hasanov Jamshid Shokir o‘g‘li
Profi University Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu tezisda o‘smirlik davrida xavotirlik holatlarining namoyon bo‘lishida gender omilining tutgan o‘rni va uni aniqlashning psixologik ahamiyati yoritilgan. Yigit va qizlarda xavotirlikning paydo bo‘lish sabablari, ijtimoiy kutilmalar hamda psixodiagnostik usullar orqali ularni baholash masalalari ilmiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, gender xususiyatlari, xavotirlik, ijtimoiy adaptatsiya, gender stereotiplari, psixodiagnostika.*

O‘smirlik davri shaxs shakllanishining murakkab bosqichi bo‘lib, bu davrda yigit va qizlar turlicha psixofiziologik hamda ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar. O‘smirlarda xavotirlikning genderga xos xususiyatlarini o‘rganish ularning ruhiy salomatligini muhofaza qilish, ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirish hamda korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xavotirlikning gender **differensializatsiya** quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qizlarda xavotirlik asosan shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy qabul qilinish, tashqi ko‘rinish va kelajakdagi oilaviy rollar bilan bog‘liq sohaga to‘g‘ri keladi. Qizlarning o‘zini boshqalar bilan solishtirishga moyilligi ijtimoiy izolyatsiya yoki rad etilish xavotirini kuchaytiradi. Yigitlarda esa xavotirlik ko‘proq jismoniy ustunlik, ijtimoiy maqom va muvaffaqiyatga erishish bosimi ostida shakllanadi. Ular jamiyat tomonidan qo‘yiladigan kuchli va mustaqil bo‘lish kutilmalarini qabul qilishi oqibatida o‘z his-tuyg‘ularini bosishga va xavotirni latent (yashirin) shaklda boshdan kechirishga moyil bo‘ladilar. Gender stereotiplari va ijtimoiy kutilmalar-jamiyatdagi an‘anaviy rollar qizlardan emotsional empatiya va yumshoqlikni, yigitlardan esa matonat va yetakchilikni talab qiladi. Bu kabi qoliplar o‘smirlarning his-tuyg‘ularini ochiq ifodalashiga to‘sqinlik qilib, ichki vizualizatsiyalangan va somatizatsiyalangan xavotir darajasini oshiradi. Gender xususiyatlarini inobatga olish xavotirlikni bartaraf etishda differensial yondashuvni talab etadi. Qizlar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash va o‘z-o‘zini qadrlashni rivojlantirish muhim bo‘lsa, yigitlar uchun emotsional intellektni oshirish hamda his-tuyg‘ularini ochiq namoyon etish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor hisoblanadi. O‘smirlardagi xavotirlik darajasi va gender identifikatsiyasini kompleks baholash maqsadida quyidagi diagnostik metodikalar majmuasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu 50 ta savoldan iborat so‘rovnoma shaxsning umumiy bezovtalik va asabiy taranglik darajasini baholashga xizmat qiladi. Metodika xavotirlikning 5 ta darajasini (juda yuqori, yuqori, yuqoriga intiluvchi o‘rta, pastga intiluvchi o‘rta va past) ajratib ko‘rsatadi. U orqali xavotirlikning fiziologik (terlash, taxikardiya) va psixologik ko‘rinishlari aniqlanadi. (J.

Teylorning bezovtalik darajasini aniqlash metodikasi.) Ushbu diagnostik vosita xavotirlikni ikkita mustaqil konseptual shaklda o'lcaydi. Shaxsiy xavotirlik (shaxsning barqaror xususiyati sifatidagi moyillik) va holatli (situativ) xavotirlik (aniq bir vaziyatda yuzaga keladigan vaqtinchalik emotsional reaksiya). (Ch.D. Spilbergerning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi.) O'smirlarning maktab, shaxslararo muloqot va ijtimoiy situatsiyalarda namoyon bo'ladigan xavotirlik reaksiyalarini differensial tahlil qilish imkonini beradi. (A.M. Prixojaning "Shaxs xavotirliligini o'rganish" metodikasi.) O'smirlarda maskulinlik, femininlik va androginiya ko'rsatkichlarini aniqlaydi. Androginiya (maskulin va feminin xususiyatlarning muvozanatlashgan uyg'unligi) namoyon etgan o'smirlarda gender stereotiplari bosimi kamroq bo'lganligi sababli xavotirlik darajasi nisbatan past bo'ladi. (S. Bemning gender roliga oid testi (BSRI))

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'smirlarda xavotirlikning gender **differensializatsiyasini** o'rganish ularning ruhiy va ijtimoiy kamolotini to'g'ri yo'naltirishda muhim pedagogik-psixologik indikator hisoblanadi. Metodikalardan olingan natijalar o'smirlarning individual emotsional holatini yaxshilash, stressga chidamliligini oshirish va ijtimoiy integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan amaliy psixologik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бем С. *Линзы гендера: Эссе о трансформации взглядов на сексуальное неравенство* / Пер. с англ. — М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. — 336 с.
2. Карелин А. А. *Большая книга психологических тестов*. — М.: Эксмо, 2007. — 416 с. (*J. Teylor va Ch. D. Spilberger metodikalari uchun*).
3. Прихожан А. М. *Психология тревожности: дошкольный и школьный возраст*. — 2-е изд. — СПб.: Питер, 2009. — 192 с.
4. Spielberger C. D. *Manual for the State-Trait Anxiety Inventory (STAI)*. — Palo Alto, CA: Consulting Psychologists Press, 1983.
5. Bem S. L. *The measurement of psychological androgeny* // Journal of Consulting and Clinical Psychology. — 1974. — Vol. 42, No. 2. — P. 155–162.
6. G'oziyev E. G'. *Ontogenez psixologiyasi: darslik*. — Toshkent: Noshir, 2010. — 360 b.
7. Karimova V. M. *Ijtimoiy psixologiya: O'quv qo'llanma*. — Toshkent: "Xalq merosi" nashriyoti, 2002. — 184 b.
8. Nishanova Z. T., Kamilova N. G. *Rivojlanish psixologiyasi. Differensial psixologiya: Darslik*. — Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2013. — 320 b.